



## „BOBURNOMA" ASARIDA SAMARQAND TA'SVIRI

**Eshmonova Bahoroy**

*Navoiy davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, „Boburnoma" asarining mazmuni ya'ni O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hamdu asarda Samarqand ga alohida ta'rif va shu bilan birga, bu davrdagi ilm-fanning rivoji bu yerdan yetishib chiqqan va hayoti shu shahar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab alloma va olimlar, shayxlar, tasavvuf ulamolari va muhaddislar haqida ham ma'lumot berilgan. Mirzo Ulug'bekning rasadxona va madrasalariga alohida to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'z:** *„Boburnoma", Movarounnahr, Samarqand, imom al-Buxoriy, Shayx Moturidiy, Temuriylar saltanati va Mirzo Ulug'bek.*

Boburnoma — jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Muallif "Vaqoe" ("Boburnoma")ni yozgani qo'liga qalam olgan kundan boshlab voqea-hodisalar talqini va kishilar shaxsiyatiga doir fikr-mulohaza va ma'lumotlarning faqat rostini yozishga ahd qilgan. Asar tarixiy voqea va hodisalarga nihoyatda boyligi va o'sha davr ruhiyatini to'la ochib berganligi uchun ham qimmatlidir. Ushbu shoh asar 1494 –1529-yillardagi voqealarni, Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston va Hindistonda ro'y bergan va ko'pida Boburning o'zi ishtirok etgan o'zaro urushlarni o'z ichiga oladi. Chamasi, Bobur siyosiy faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab voqealarni xotira sifatida qayd etib borgan, keyinchalik bu qaydlar "Boburnoma"ning yaratilishiga asos bo'lgan. Boburning "Boburnoma"ni qachon yozishga kirishgani ma'lum emas. Biroq asarning ayrim o'rinlari uning ko'proq qismi Hindistonda yozilgani yoki qayta tahrir qilinganini ko'rsatadi. Masalan, adib 909- (1503-1504) yilgi Afg'oniston voqealarini bayon qilar ekan, Ibrohim Lo'diy ustidan qozongan g'alabasini eslaydi. Bu esa Boburning 909-yil voqealarini Hindistonda yozganini yoki avvalgi yozganlarini tahrir qilganini ko'rsatadi. Bobur bu asarini umrining oxirlarida, 1529-1530-yillarda yozib tugatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining murakkab va qisqa hayotida (1483-1530) anchagina asarlar yozgan bo'lsada, ularning hammasi bizgacha yetib kelmagan. Boburdan qolgan ijodiy merosining eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyotida va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan " Boburnoma " asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon ma'teriali o'z ichiga olganligi, til va uslubining go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarning diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyozma nusxalari izlana boshlagan va g'arb tillariga

tarjima qilishga kirishdilar. Shu jumladan, Boburning "Boburnoma" asarida Samarqandning joylashish o'ri haqida ma'lumot berar ekan uni "Beshinchi iqlimdan", "Ramziy nujumiy", "Daraja va Daqiqa" va boshqa bir qator istilohlar bilan belgilaydi. "Boburnoma" dagi Samarqand tasviriga e'tibor bersak: "Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Tuli ramzi nujumiy daraja va daqiqadur, arzi daraja va daqiqadur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba bila munga dast topmag'on uchun baldayi mahfuza derlar". Samarqand ta'rifiga alohida e'tibor bergan muallif odob saqlagan holda Yer yuzida ushbu shahardek boshqa shahar yo'q demaydi, balki "kamroqdur" deya tasvirlaydi. Shahar aholisi haqida "Eli tamom sunniy va pokmazhab va mutasharri' va mutadayyin eldur", tarzida fikr yuritgan Bobur shahar ahlining islomiy aqidada sodiqligini, bu esa, jamiyatda tartib-qoida ustuvorligini ta'minlovchi asosiy mezon ekanini alohida ta'kidlaydi. «Boburnoma»da Samarqand haqidagi tasvirlarda bu yerdan yetishib chiqqan va hayoti shu shahar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab alloma va olimlar, shayxlar, tasavvuf ulamolari va muhaddislar haqida ham ma'lumot berilgan. Jumladan, Imom al-Buxoriy, Shayx Moturidiy, Abulqosim Hakim Samarqandiy, Abu Lays Samarqandiy, Abu Abdulloh Ro'dakiy Samarqandiylar to'g'risidagi ma'lumotlar ahamiyatlidir. Bobur temuriylar davlatining poytaxti bo'lgan Samarqandga bir umr talpinib yashadi, bu yerda yashab o'tgan aziz avliyolarni ma'naviy piri ustoz sifatida bilib e'tiqodda bo'ldi. Bobur Imom al-Buxoriy haqida „Yana sohibi «Sahihi Buxoriy» Xoja Ismoil Xartanak ham Movarounnahrdindur"-, deya e'tirof etadi.

Bobur kalom ilmining peshvolaridan bo'lgan moturidiya ta'limotining asoschisi Shayx Moturidiyni ham alohida ulug'lab („Imomul-hudo", „Imomul-mutakallimon") tilga oladi, „Mubayyin"da esa o'zining aqidaga oid qarashlarini shu ta'limot asosida ifodalaydi. Uning ta'limoti, yo'nalishlari va ilmiy asarlari xususida iliq fikrlarini bayon etadi: „Shayx Abu Mansurkim, aimmayi kalomdindur, Samarqandning Moturid otliq mahallasidindur. Aimmayi kalom ikki firqadur, birni «moturidiya» derlar, birni «ash'ariya». Moturidiya Shayx Abu Mansurg'a mansubdur». Bobur Samarqandning shu kabi ilm-ahli haqida fikr yuritib islom dini paydo bo'lgandan beri dunyoda hech bir shahar ushbu din rivojiga Samarqandchalik xizmat qilmagan, bu qadar ko'p olim-u ulamolarni yetishtirib bermaganini o'zgacha faxr bilan tilga oladi: "Hazrati Risolat sallallohu alayhi va sallam zamonidin beri ul miqdor aimmayi nelomkim, Movarounnahrdin paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum emaskim, muncha paydo bo'lmish bo'lg'ay". Yuqoridagi faktlardan anglash mumkinki, 1420-yilda Mirzo Ulug'bek tomonidan asos solingan madrasi oliyalar uchun mustahkam asoslar mavjud edi. Ushbu hududdan yetishib chiqqan yuqorida nomlari keltirilgan olim-u fuzalolar va ular tomonidan yaratilgan qimmatli ilmiy meros Ulug'bek madrasalarining yuzaga kelishida ham poydevor vazifasini bajardi, deyish mumkin.

Samarqand tasvirida Bobur shaharning ko'plab bog'lari, me'morchilik obidalari haqida ma'lumot beradi. Temuriylar saltanatining poytaxti bo'lgan ushbu shaharda Amir Temur davrida yanada ko'plab me'moriy obidalarning barpo etilgan, bog'u rog'lar yaratilgan va bu bunyodkorlik ishlari shahzodalar Shohruh, Ulug'bek, Muhammad Sultonlar tomonidan munosib davom ettirilib bir qancha madrasalar, inshootlar, minoralar qad roslaganini alohida ta'kidlab o'tadi. Xususan, Bog'i Dilkusho, Bog'i Bo'ldu, Naqshi Jahon, Bog'i Chanor, Bog'i Shamol, Bog'i Behisht kabi bog'lar mazkur shaharga o'zgacha ko'rk, go'zallik bag'ishlab turganini zavq bilan tasvirlaydi. Uning o'zi ham shu kabi obidalar, bog'lar yaratishni maqsad qiladi, ammo bu orzusini Kobul va Hindistonda amalga oshirishga majbur bo'ladi.

Bobur Samarqand tasvirida Ulug'bek madrasalari va rasadxonasini batafsil keltiradi: "Temurbekning va Ulug'bek Mirzoning imorati va bog'oti Samarqand mahallotida ko'pdur... Ulug'bek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gunbazi bisyor ulug' gunbazdur. Olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar", tarzidagi ma'lumotlardan madrasa va xonaqohning ulug'vorligini, uning gunbazi ham ancha muhtasham ekanini tasavvur qilish mumkin. Bobur Samarqandni qo'lga kiritganidan so'ng bu yerda Ulug'bek Mirzo tomonidan bunyod etilgan inshootlarni, me'moriy obidalarni o'z ko'zi bilan ko'rishga musharraf bo'ladi. Xususan, Ulug'bek ilmiy salohiyatining nodir namunasi bo'lgan rasadxonani ham diqqat bilan ko'zdan kechiradi: "Pushtayi Ko'hak domanasida rasaddurkim, zij bitmakning olatidur. Uch oshyonliqtur. Ulug'bek Mirzo bu rasad bila "Ziji Ko'ragoniy"ni bitibtur...". Bu ma'lumotlardan muallifning Ulug'bek shaxsiyatiga, uning ilmiy faoliyatiga alohida ehtirom bilan qaraganini ko'rish mumkin. Boburning ushbu tarixiy faktlari yana shunisi bilan ham muhimki, sobiq sho'rolar davrida Ulug'bek rasadxonasi uning vafotidan keyin Xoja Ahror Vali topshirig'i bilan buzib tashlangan degan soxta ideologiyaga munosib javob ham bo'ladi.

"Boburnoma" nafaqat o'zbek xalqining ma'naviy mulki, balki butun turkiy xalqlar, forsiy xalqlar, hindlar, doniylar, pushtunlar, tojiklar xalqini o'zida aks ettiradigan butun O'rta Sharq xalqlarining ma'naviy mulkidir. Uni o'rganish, ilmiy tahlil qilish esa har safar biz uchun tarixning, buyuk bobokalonimiz hayotining yangi-yangi nuqtalarini ochib berishda davom etmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Zahiriddin Muxammad Boburning „BOBURNOMA" T. 2007
2. Abdurashid Abdug'afurov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. O'zbek adabiyoti tarixi, 3j., T., 1978;